


SURXONDARYO VILOYATINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar- oktabr)


Viloyat bo'yicha joriy yilning yanvar- oktabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 7967,9 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6,8 % ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 823,5 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 33,7 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tovar aylanmasi 7144,4 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 4,4 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 847,1mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,8% ga ko'paygan) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so'm)



2018 yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Termiz shahrida (19,6 %), Boysun (6,4 %) ,Termiz (5,9 %), Denov (4,5 %) Sho'rchi (3,8 %) va Sariosiyo tumanlarida (3,7%) qayd etildi.


Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, (%)




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 33,7 % ga o'sdi va 823,5 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 10,3% ulushiga to'g'ri keladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra 7144,4 mlrd. so'mni tashkil etib, 2018 yilning yanvar- oktabr oylariga nisbatan 4,4 % ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 89,7 % ga teng kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)



Chakana savdo aylanmasida yirik korxonalar va kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining ulushi, (%)




Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiyl tadbirkorlik sub'ektlarining ulushi tumanlar kesimida, Muzrabot (99,5 %), Uzun (99,1 %), Denov (97,1 %) va Oltinsoy (96,9 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 10,3% ni tashkil etib, eng katta ulush Termiz shahrida (32,0 %), Termiz (15,4%) va Jarqo'rg'on tumanlarida (5,3 %) ga kuzatilgan.

Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan shahar va tumanlar Termez shahri (23,1 %), Denov tumani (20,9 %), Sho'rchi (8,8 %), Sherobod (5,7 %) va Jarqo'rg'on tumanlari (5,4%) ga chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Tumanlar kesimida jami chakana savdo tovar aylanmasining ulushi, foizda




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari va yirik korxonalarning chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi shahar va tumanlar kesimida.

	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari (mlrd.so`m)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da
--	------------------------------	---	---	---

Surxondaryo viloyati	823,5	133,7	7144,4	104,4
Termiz Sh.	589,9	207,9	1251,3	99,7
Oltinsoy	10,2	55,2	322,6	105,0
Angor	12,8	63,0	346,8	105,3
Boysun	16,5	84,0	327,8	107,8
Muzrabot	1,7	18,7	308,0	106,0
Denov	48,5	73,4	1613,2	105,8
Jarqo'rg'on	22,7	71,0	406,7	104,7
Qumqo'rg'on	13,8	60,6	322,5	104,4
Qiziriq	11,3	62,4	334,0	104,3
Sariosiyo	17,9	102,9	321,3	103,7
Termiz	32,1	109,6	177,0	105,2
Uzun	2,6	18,8	300,1	106,1
Sherobod	19,1	64,9	434,2	105,7
Sho'rchi	24,4	68,2	678,9	105,7

Hududlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining viloyat chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)



Jumladan, 2019 yilning yanvar- oktabr oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,1% ni tashkil etib, 170,1 mlrd. so'mga yetdi yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 9,3% o'sishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 88,0 % ulushi kichik tadbirkorlik sub'ektlari ulushiga to'g'ri kelmoqda.


SURXONDARYO VILOYATINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar- oktabr)

Yanvar- oktabr oylarida viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 1939,3 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 0,5 % ga kamaydi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori ko'rsatkich hajmi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2019 yil yanvar- oktabr oylari yakunlariga ko'ra, 1296,7 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,9 % ga o'sdi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 66,9 % ni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkichni bazi tumanlar bilan taqqoslaganda, Angor (92,0 %), Termiz (92,0 %), Boysun (87,9 %) , Uzun (84,2 %) va Sariosiyo (83,6 %) tumanlarida yuqori bo'lgan.

Yirik va kichik biznesning ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)




Ulgurji savdo aylanmasi tarkibida yirik korxonalar aylanmasining ulushi 33,1 % ni tashkil etdi, yirik korxonalaridagi ulgurji savdo aylanmasining aksariyati Qumqo'rg'on tumani (66,2 %), Jarqo'rg'on (56,0 %) va Muzrabot (55,9 %) tumanlarida kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mlrd.so`m)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik korxonalar (mlrd.so`m)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Surxondaryo viloyati	1939,3	99,5	642,6	88,6	1296,7	105,9
Termiz sh.	375,5	90,5	172,7	77,4	202,8	105,9
Oltinsoy	69,2	91,0	36,1	80,7	33,1	105,8
Angor	155,0	108,3	12,4	107,3	142,6	108,4
Boysun	8,4	102,5	1,0	80,2	7,4	106,6
Muzrabot	115,3	107,1	64,5	109,5	50,8	104,2
Denov	290,2	99,0	82,7	84,7	207,5	106,2
Jarqo'rg'on	193,8	117,5	108,4	129,4	85,4	105,1
Qumqo'rg'on	78,0	95,8	51,6	91,6	26,4	105,4
Qiziriq	167,2	102,0	35,2	88,0	132,0	106,5
Sariosiyo	63,9	104,2	10,5	96,0	53,4	106,0
Termiz t.	154,9	86,9	12,4	28,3	142,5	105,9
Uzun	43,4	90,7	6,9	52,7	36,5	104,9
Sherobod	169,6	113,7	33,5	176,5	136,1	104,6
Sho'rchi	54,9	92,4	14,7	69,7	40,2	104,9

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining o'tgan yilga nisbatan o'zgarish sur'atlari, (%)



Ulgurji tovar aylanmasida o'tgan yilning shu davriga nisbatan eng quyi o'sish sur'ati Termiz tumanida (86,9 %) va eng yuqori o'sish esa Jarqo'rg'on tumanida (117,5) qayt etilgan.

Surxondaryo viloyat statistika
boshqarmasi tashqi iqtisodiy faoliyat va
savdo statistikasi bo'limi
(0371) 230-85-82